

930
Ch-46
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



CHORIYEV SH.SH.

JAHON ARXIVLARI

(1-QISM: QADIMGI DAVRDAN
XX ASR BOSHLARIGA QADAR)

930.25
Ch-76

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Choriyev Sh.Sh.


JAHON ARXIVLARI

(1-QISM: QADIMGI DAVRDAN
XX ASR BOSHLARIGA QADAR)

60320300- Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi uchun

O'quv qo'llanma

TOSHKENT-2023



SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng tarixchi mutaxassis olimlar zimmasiga Vatanimiz tarixi va madaniyatini obyektiv va holisona yoritishdek ulkan vazifalar yuklandi. Natijada moddiy va ma'naviy madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy va etnik masalalarni o'zida mujassam etgan o'tmish tariximizni yangi ilmiy qarashlar, ilmiy g'oya, sobiq sho'rolar davri tarixshunosligiga tanqidiy yondashish va manbalarni yangicha metodologik jihatdan ilmiy tahlil etish asosida o'rganish an'anasi kuchaydi.

Jamiyatning o'timishni o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi ma'lumotlarni tez fursat ichida olish borasidagi ehtiyojlarini o'sib borayotganini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi hukumati ish yuritish xizmatlari va arxiv muassasalari faoliyatiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi arxiv sohasida ko'pgina chet davlatlari bilan xalqaro aloqalar olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi 2009-yil aprel oyida Xalqaro arxivlar kengashining (XAK) "A" toifasiga a'zo bo'ldi.

2010-yil 15-iyunda "Arxiv ishi to'g'risidagi" qonunning qabul qilinishi arxiv sohasini rivojlantirishda tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi tarixiga oid arxiv hujjatlari hozirda Turkiya, Misr, Germaniya, Italiya, Fransiya, Angliya, Hindiston, Xitoy va Rossiya davlatlarida borligi aniqlangan.

Ushbu o'quv qo'llanma jahon yetakchi davlatlarida arxiv ishi tarixi va zamonaviy arxivlari tajribasini o'rganishda qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

O'quv qo'llanma besh bobdan iborat bo'lib, birinchi bobda Qadimgi davrda arxivlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, qadimgi yozuv turlari va yozuv vositalari, kohinlar, shahar va respublikalar arxivlari, arxiv-kutubxonalar,

Qadimgi sharq davlatlari, qadimgi rim, yunoniston arxivlari, O'rta Osiyodagi qadimgi arxiv xarobalari o'rganilishi doir mavzular o'rin olgan.

Ikkinchi bob ilk va o'rta asrlarda G'arbiy Yevropaning asosiy qirollik arxivlari haqida, uchinchi bobda esa Rossiya hududlarida IX – XIX asrlarga oid arxivlar faoliyati, to'rtinchi Birinchi Jahon urushiga bo'lgan davrda G'arbiy

UDK: 930.25(100) (09) (075.8

KBK: 79.3ya73

Ch 77

“Jahon arxivlari tarixi” o‘quv kursi mantiqiy uch qismdan iborat bo‘lib, uch semestr davomida talabalarga o‘qitiladi: qadimgi davrdan Birinchi jahon urushigacha bo‘lgan davr; XX asr arxivlari; XXI asr boshlarida arxivlar faoliyati. Ushbu tayyorlangan o‘quv adabiyoti kursning birinchi qismi uchun tayyorlangan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada qadimdan to XX asr boshlariga qadar jahon arxivlarining tarixiy taraqqiyoti jarayonlari yoritib berilgan. Osiyo va Yevropada yetakchi hisoblangan arxivlarning tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari va qonuniyatlari, faoliyati, shuningdek, arxiv hujjatlari turlari, tasnifi, materiallari, tarkibi hamda ularni saqlash masalalari xususida ma’lumotlar berilgan.

O‘quv adabiyoti arxivshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan oliy o‘quv yurtlari talabalari, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchilari va arxiv idoralarida faoliyat yurituvchi yosh mutaxassis kadrlar uchun mo‘ljallangan.

UDK: 930.25(100) (09) (075.8

KBK: 79.3ya73

Ch 77

Muallif – PhD, dotsent, Choriev Sh.Sh.

Taqrizchilar:

Xoliqova R.E. – t.f.d., professor Toshkent Davlat Texnika universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasini mudiri

Raxmonqulova Z.B. – t.f.n. dots. O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti “Manbashunoslik va arxivshunoslik” kafedrasini mudiri

ISBN: 978-9943-9117-2-7

TOSHKENT-2023

O'ZMII
ANBOROT-RESURS
MARKAZI

2024/19
90

uning mavjud bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Mari (Qadimgi shahar-davlat. Hozirgi Suriya hududlarida to'g'ri keladi (er.avv. III ming yillikning boshlarida paydo bo'lib, er.avv. XVIII asrda Hammurapi tomonidan yakson qilingan) davlati shohi Zimrilimaning saroy arxivi hujjatlari tasdiqlaydi. Ushbu arxivdan 40 mingga yaqin loy taxtachalar topilgan bo'lib, ularning bir qismi Zimrilima va Hammurapi o'rtasidagi diplomatik yozishmalar hisoblanadi. Qolganlari xo'jalik, adabiy va diniy hujjatlar hisoblanadi.

3. Kohinlar arxivlari

Sinfiy jamiyatda kohinlar muhim o'rin tutgan. Davlatchilik tuzumi shakllangan so'ng davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, yozishmalarni ularda saqlangan. Ular o'z kitoblarini va muhim hujjatlarni ibodatxonalarning qimmatbaho boyliklari saqlanadigan joylarida saqlashgan. Quldorlik jamiyatida kohinlar katta ahamiyatga ega bo'lib ular shohning eng birinchi maslahatchisi va yordamchisi hisoblangan. Ular matematik va astronomik, kalendar bilimlarini chuqur egallashgan.

Bundan tashqari Mesopotamiya, Bobil va Ossuriya davlatlari ilm-fan rivojlangan markazlar hisoblangan. Ayniqsa, Shumer hududlarda matematika, astronomiya, yer o'lchash ilmi juda yaxshi rivojlangan. Ular 28 kunlik bo'lgan oy kalendarlaridan foydalanishgan.

Kohinlar arxivlarida astronomik kuzatuv hujjatlari, vaqtlar qaydnomalari, ob-havo, san'at yodgorliklari qurilishlari, tabobatga oid hujjatlar saqlangan. Adabiy ruknda esa diniy-mifologik rivoyatlar, sehr-jodu duolari, diniy qo'shiqlar, duolar ham saqlanib qolgan.

Davlatchilik tuzumi shakllanib, kohinlar alohida faoliyat olib bora boshlagan davrlarda ham ularning arxiv hujjatlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Kohinlar ibodatxonalarda faoliyat olib borishgan. Shohlar o'z qimmatli hujjatlarini asl nusxalarini, boshqa davlatlar bilan tuzilgan shartnoma hujjatlarini saqlash uchun ishonib topshirishgan. Bundan tashqari kohinlarga boshqa alohida shaxslar ham ba'zida o'zlarining hujjatlarini saqlash uchun topshirishgan.

Kohinlar tasarrufida ko'pgina yer mulklari va ishchilari bo'lgan. Ular orqasidan kelgan boyliklarning hisob kitoblarini olib borish hujjatlari (daromad va xarajat ro'yxatlari, moliya-xo'jalik hujjatlari, qullar ro'yxati, mol-mulk oldi-sotdi hujjatlari va boshqalar) ham o'z navbatida ularning arxivlaridan joy olgan. Kohinlar ro'yxatlari, kohinlar maktablari o'quvchilari ro'yxatlari ham saqlangan.

hisoblanadi. Akkad davlatiga tegishli xo'jalik va ma'muriy arxivlardan tashqari yana bir e'tiborga loyiq topilma arxiv-kutubxona hisoblanadi. Saqlovxona qadimgi Ikki daryo oralig'i hududlarida diniy markazlardan hisoblagan Nippur shahridagi ibodatxonasi xarobalaridan topilgan. Mixxat yozuvli loy taxtachalar 80 ta binolarda saqlangan. Hujjatlarning ma'lum bir qismi ma'muriy xo'jalik ishlariga tegishli bo'lsa, ko'pgina qismi adabiy mazmundagi hujjatlar ekanligi aniqlangan.

Miloddan avvalgi II ming yillikda Bobil podsholigi Mesopotamiya janubidagi eng yirik qudratli davlatga aylandi. Bobil qulay geografik o'ringa ega bo'lib, Frot va Dajla daryolari o'zanlari deyarli birbiriga qo'shilib ketadigan bir makonda joylashgandi. Kemalarda tovarlari bilan birga suzib kelgan aksariyat savdogarlar bu shaharga qo'nib o'tishar edi. "Bobil" so'zining o'zi esa "xudolar darvozasi" degan ma'noni anglatadi. Bobilning bosh ko'chasi g'alaba ilohasi Ishtar darvozasi bilan tugallangan. Bobil davlatida dehqonchilik, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdo-sotiq yaxshi rivojlanadi. Ammo o'zaro urushlar bunga xalaqit beradi.

Miloddan avvalgi XVIII asrda Bobil podshosi *Hammurapi* butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Hammurapi hukmronligi davrida Bobil eng qudratli davlatga aylanadi.

Hammurapi qonunlari. Hammurapi tarixda qonunlar tuzuvchi hukmdor sifatida nom qoldirgan. Hammurapi qonunlari hajmi jihatidan, hayotning har xil tomonlarini qamrab olishi bilan ilgari mavjud bo'lgan barcha qonunlardan ustunlik qiladi. Hammurapi qonunlari hamma uchun badavlat va qashshoq kishilar uchun birdek bo'lgan. Qonunlar matnlari mamlakatning barcha shaharlarida o'rnatilgan tosh ustunlarga yozib qo'yiladi.

Bobilda ish yuritish asoslari yuqori darajada rivojlangan. Shoh Hammurapi saroyida doimiy ravishda devonxona faoliyat olib borib, unda shohning farmonlari, ko'rsatmalarini yozib boruvchi ko'pgina kotiblar ishlagan. Shoh saroyida hujjatlarni saqlash saqlovxonasi bo'lib, shoh nomiga kelib tushgan va saroy xo'jalik hujjatlari saqlangan. Ammo arxeolog olimlar tomonidan bugungi kungacha Bobil shohlari arxivi topilmagan. Ammo uning noiblik shaharlarida arxivlar aniqlangan. Masalan, Hammurapining Larsa-Sindinama noibligidan arxiv topilmalari topilgan. Arxiv hujjatlarida Hammurapining davlat boshqaruviga, qurilish ishlari, kanallarni ta'mirlash, aholi o'rtasidagi da'vogarlik ishlariga oid hujjatlar saqlangan. Hammurapining siyosiy arxivi bugungi kungacha aniqlangmagan bo'lsa-da, ammo

Shumer shaharlari mudofaa devorlari bilan o'rab olingan edi. SHaharning bosh darvozasidan boshlangan ko'chalar markaziy maydonga, ibodatxona va hukmdor saroyiga borar edi.

Urush paytida shahar aholisi sardomi saylagan. Bora-bora ularning nufuzi ortdi, sardorlar muntazam hukmronlik qila boshladilar. Ularni **podsholar** deb atashgan. Podsho shahar-davlatni aslzodalar, koinlar va harbiy qo'shinlarga tayangan holda amaldorlar yordamida idora qilar edi.

Qadimgi davlatlarda Shoh hukumati qoshida respublika ko'rinishidagi kichik boshqaruv tizimi vujudga kelgan.

Respublikalarda demokratik ko'rinishda davlat boshqaruv tizimiga asos solingan va ular tasarrufida ham arxivlar tashkil etilgan. Birinchidan shahar-davlatning hokimiyat va mol-mulkari jamoat mulki hisoblangan. Hokimiyat barcha jamiyat a'zolari oldida ma'luliyatli hisoblanganlar. Bu haqidagi ma'lumotlar ularning g'azna hujjatlari bilan saqlangan boshqaruv hujjatlarida aks etgan. Ikkinchidan boshqaruv tizimi Kengash asosida boshqarilgan va uning hujjatlar saqlanishiga alohida e'tibor qaratilgan va juda yaxshi saqlangan. Respublikalar arxivlari hokimiyatning oliy organi tasarrufida bo'lgan va uni boshqarish uchun maxsus shaxslar tayinlangan. Arxivlar odatda hukumat binosi yaqinida yoki xalq yig'inlari o'tkaziladigan joyga yaqin biror bir faxriy ibodatxonada joylashgan. Ba'zida alohida binolar ajratilgan. Shahar-respublika arxivlarda saqlangan hujjatlar shohlar arxivlari tarkibiy tuzilishiga o'xshagan. Qonunlarni qabul qilishda ovoz berish jarayonlariga oid, davlat yuqori organlariga mansabdor shaxslarni tayinlashdagi bayonnomalar, qarorlar saqlangan. Shu bilan birga qonun matnlari, harbiy majburiyatga loyiq fuqarolar ro'yxati, xalqaro shartnomalar, mansabdor shaxslar hisobotlari, davlat byudjeti haqidagi ma'lumotlar, davlat mol-mulkari boshqaruviga oid ma'lumotlar va boshqa turdagi hujjatlar saqlangan. Hujjatlarda ko'pgina davlat maxfiy ma'lumotlari mavjud bo'lganligi sababli, barcha hujjatlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ular juda qattiq va muntazam qo'riqlangan.

5. Arxiv-kutubxonalar

Bugungi kunda jahon arxivshunos olimlari orasida arxivlarning kelib chiqishi borasida turli qarashlar mavjud. Ba'zi olimlar arxivlar, birinchi bo'lib paydo bo'lgan deyishsa, ba'zi olimlar kutubxona-arxivlar birinchi paydo bo'lgan deb ilmiy xulosalar berishgan. Arxivshunos olim I.Alimov jamiyatda davlat paydo

Lagash – Qadimgi Shumerdagi shahar-davlat. Lagashda (er.avv. XXV asr) aniqlangan Kohinlar arxivi – juda katta hajmdagi xo'jalik arxivi hisoblanadi. Arxivdan loy taxtachalarda bitilgan mixxat yozuvli yarim million atrofida hujjatlar topilgan. Arxiv hujjatlarida dehqonchilik, chorvachilik, kemachilik, kosibchilik va boshqa xo'jalik ishlariga oid ma'lumotlar saqlangan.

Janubiy Messopotamiyaning Nippur shahridan ham kohinlar arxivi topilgan bo'lib, unda ish yuritishga oid va diniy mazmundagi hujjatlar topilgan. Ibodatxonalar solnomalarni qayd etuvchi vazifani bajargan. Qadimgi Sharqda vujudga kelgan Ikki daryo oralig'idagi davlatlar ilmiy-mifologik, muhim voqealarni, ob-havoga oid ma'lumotlarni yozib borishgan.

Nippurdagi Kohinlar arxivi 62 ta xonadan iborat bo'lgan va qattiq qo'riqlangan. Unda uch ming yil mobaynida yig'ilgan yuz mingdan ortiq hujjatlar saqlangan.

Qadimgi davrda ikki daryo oralig'i davlatlarida shohlar (saroy) arxivlari. Quldorlik jamiyatining rivojlanishi natijasida davlat hokimiyatining vazifalari ortib bordi va ularni boshqarishda olib boriladigan hujjatlar shohlar saroylarida saqlangan. Ularda shoh qarorlari, qonunlar, tashqi siyosatga oid yozishmalar, davlatlar o'rtasidagi shartnomalar, mansabdor shaxslar, harbiylarning shohlarga bergan hisobotlari, aholini ro'yxatga olish hujjatlari, davlat daromad va xarajat hujjatlari, saroy xo'jaligiga oid hujjatlar va boshqalar saqlangan. Arxivlar shohlarning joylardagi hududiy boshqarmalarida ham mavjud bo'lgan. Ushbu arxivlarda shoh tomonidan yuborilgan farmoyishlar va xizmat hujjatlari asosiy o'rinni egallagan.

4. Shahar va respublikalar arxivlari

Er.avv. IV ming yillik oxirida Mesopotamiyada *Uruk, Umma, Lagash, Ur* va boshqa shaharlar vujudga kela boshladi. Ular *shahar-davlatlar* deb nomlangan, shaharning o'zi va unga tutash dehqonchilik tumanlaridan iborat bo'lgan. Har bir shaharning hukmdori oliy xudosi — shahar homiysi deb e'tiqod qilishgan. Xudo nomidan kohinlar hukmdorlik qilar, xudolar ibodatxonasi esa davlatdagi hokimiyat markazi edi.

Shahar-davlatlar tepasida hukmdorlar turardi. Bundan 5000 yil muqaddam Shumer shaharlari orasida eng qudratlisi Ur shahri bo'lgan.

Miloddan avvalgi III ming yillik o'rtalarida *Lagash shahri darajasi* yuksala boshladi, Shumer va Akkadning ko'pgina shaharlari Lagashga qo'shib olindi.

misol sifatida qadimgi Ugarit (Suriyadagi qadimgi savdo shahar-davlati) xarobalaridan aniqlangan Vaala ibodatxonasi (er.avv. II ming yillik boshlari) arxiv-kutubxonasini misol qilib olish mumkin. Ushbu muassasadagi saqlanmalarning katta qismini ma'muriy-xo'jalik hujjatlari tashkil etganligi sababli arxiv so'zi kutubxona so'zidan oldin qo'llanilgan.

Amerikalik tadqiqotchi Albert Kleyn Janubiy Mesopotamiyaning muqaddas shahri sanalgan – Nippurda tarixiy arxivlar mavjud bo'lganligi hamda hujjatlar paydo bo'lgandan 30 yil o'tgach, ular tarixiy arxivlarga topshirilgan, deb ta'kidlab o'tadi.

Ba'zida koinlar tomonidan ibodatxonalarda alohida kutubxonalar tashkil etilgan. Ularda qadimgi ilmiy asarlar saqlangan. Sippar shahridagi Shamash ibodatxonasi bunga misol bo'la oladi. Zamonaviy kutubxona tipidagi kutubxonalar (er.avv. II ming yillikning birinchi yarmida) qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Rus tarixchi arxivshunos olimlari N.V.Brjavnstovskaya va B.S.Ilizarovlar M.A.Karostovsevnig ilmiy tadqiqotlariga asoslanib, Misrda Misr shohliklari o'rta davrida (er.avv. 2040–1783 (yoki 1640)yillar) kutubxonalar qadimgi Yunoniston bilan bir vaqtda tashkil topgan va rivojlangan degan xulosalarni berishgan.

Eramizdan avvalgi III ming yil oldin Xitoyda kitoblarni yig'ish va arxiv hujjatlarini saqlash ishlarini bajaruvchi maxsus lavozim mavjud bo'lgan. Er.avv. 221 yilda imperator Shixuandi tomonidan Xitoy davlati birlashtirilgandan so'ng Sin sulolasi tarixi, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, folbinlikka oid kitoblardan tashqari barcha kitoblarni yoqib yuborishni buyurgan. Keyinchalik Xan sulolasi davrida ham kutubxonalarni tashkil etish taqiqlangan va bir qancha vaqtdan so'ng bu buyruq bekor qilingan. Imperator U-di davrida davlat kutubxonasi tashkil etilgan. Er.avv. 26 yilda imperator Chendi ilgari yashirilgan kitoblarni topishga buyruq bergan. Maxsus odamlar ushbu kitoblarni qidirish ishlari bilan shug'ullanishgan. Xitoyda eng qadimgi kitoblar katalogi tuzilgan.

6. Qadimgi Sharq hududlaridan aniqlangan arxiv harobalari

Bogazkey (ba'zi manbalarda Bugozgoya deb ataladi) arxivi Xetlar davlatining poytaxti bo'lmish Xatussa (hozirda Bogazkey arxivi Turkiyaning Anatoliya shahrida joylashgan) xarobalaridan 20 mingta 15 tonnalik loy taxtachalar topilgan. Loy taxtachalardagi yozuvlar xett tilida bo'lib, ko'pgina matnlar, siyosiy bitiklar akkad tilida, boshqalari esa qadimiy tillardan Kichik Osiyoga oid luviy, palay, xet, xuprit tillarida bitilgan.

bo'ldimi, demak davlatni boshqarishda qonunlar qabul qilingan. Ushbu qonunlar davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va ular alohida xonalarda maxsus saqlangan deb fikr yuritadi. Rossiya arxivshunos olimlari I.L.Mayakovskiy va N.V.Brjastovskayalar ikki daryo oralig'idagi Qadimgi Sharq davlatlari uchun hujjatlar saqlovxonalarini uchun "arxiv" yoki "arxiv-kutubxonalar" atamasini qo'llaydilar. E.V.Starostin "arxiv", O.I.Talankina, L.Lipin, A.Belov, A.Gluxov, S.P.Boykolar esa "kutubxonalar" atamasini qo'llaydilar.

XX asrning 30-yillarida G'arbiy Yevropa va amerikalik tadqiqotchilar o'rtasida qadimgi kutubxonalar va arxivlar xususiyatlari borasida ilmiy bahs-munozaralar kelib chiqadi. So'nggi marta nemis tarixchi olimi F.Milkau arxivlar haqida fikrlarini bildirgan bo'lsa, unga qo'shimcha tarzda qadimgi davr sharqshunos olim N.Shneydr (er.avv. 2100 yilda) Shumer va Akkad shohliklarida qadimgi shahar va davlatlarida arxivlar kutubxonalardan butkul alohida faoliyat olib borganligini yozgan. Ular quyidagi tartibda faoliyat yuritgan:

1. Arxivlar hokimiyat va boshqaruv muassasalari faoliyati uchun maxsus tashkil etilib, umumiy va jamoat tartibida foydalanish maqsadida bo'lmagan.

2. Loy taxtachalardagi, keyinchalik papirus hujjatlari arxiv saqloviga qabul qilingach, ulardan foydalanish faqatgina arxiv bo'yicha mas'ul shaxsning maxsus ruxsati yoki arxiv saqlovchisining ruxsati bilan hujjatlardan foydalanish mumkin bo'lgan.

3. Ilk bora arxiv hujjatlarini turkumlashtirish va hujjatlarni tasniflash ishlari Qadimgi Sharq davlatlarida amalga tatbiq qilingan. Ularda hujjatlarni saqlash qutilari boshqaruv tizimlari faoliyatiga moslashtirib hujjatlar saqlangan.

4. Arxiv hujjatlari maxsus loydan yasalgan qutilarda saqlangan. Qutilarning yuza qismida uning ichida saqlanayotgan hujjatlar tarkibi haqidagi ma'lumotlar maxsus belgilar bilan qayd etilgan.

Qadimgi Sharq siviliyazatsiyasining rivojlanish bosqichlarida hujjatchilik va arxivlashtirish borasida ma'lum bir texnologik tajriba mavjud edi. Masalan, maxsus arxiv muassasalari uchun loydan yoki yog'ochdan yasalgan konteynerlar, stelaj (tokcha) lardan foydalanishgan.

G.Gossen, S.Miller va boshqa G'arb tarixchilari Qadimgi Messopotamiyada kutubxonalar emas balki arxivlar paydo bo'lib, keyinroq esa qadimgi Akkad, Bobil, Ossuriyada arxiv-kutubxonalar paydo bo'lganligini ta'kidlab o'tishadi. Ularda ma'muriy va huquqiy hujjatlar diniy qo'lyozma kitoblari saqlangan. Bunga

hukmdorining bronzadan ishlangan boshi, saroy qoldiqlaridan chizilgan suratlar topilgan. Xarobalardan Nabu, Ishtar ibodatxonalari Sinaxreb va Ashurbanipal saroyi qoldiqlari topilgan.

Eng ahamiyatli topilmalardan biri Ashurbanipalning arxiv-kutubxonasi bo'lib, undan loy taxtachalaridagi shumer tilidagi matnlar, Ossur-Bobil adabiyoti va ilm fanga oid manbalar, ish hujjatlari topilgan.

Nineveya arxivi. Nineveya qadimgi Ossuriya davlatining shaharlaridan biri bo'lib, hozirgi Iroq davlatining Mosul shahrida joylashgan.

Nineviya shahri er.avv. VIII – VII asrlarda Ossuriya poytaxtiga aylantirilgan. Nineviya shahrining shimoliy qismida Ashurbannipal Sinaxreb saroyining janubiy-g'arbiy qismi joylashgan. U yerdan Ashurbannipal arxivi va 20 mingta kitob ya'ni loy taxtali yozuvlar topilgan. Nineveya janubiy qismida Imtar, Emishmish ibodatxonalari va Asarxaddan saroyi joylashgan.

Hukmdorlarning haddan tashqari shafqatsizligi sababli Ossuriya poytaxti Nineviyani "qonga botgan shahar" yoki "sherlar darasi" deya ta'riflashgan. Yurishlarda talab tortib olingan hamma narsa poytaxtga oqib kelar edi. Ulug'vor saroylar va ibodatxonalar boylikka to'lib ketgan edi. Oshshurbanipal hukmronligi yillarida Nineviyada Old Osiyodagi eng yirik, sopol taxtachalardan iborat bo'lgan kutubxona jamlangan edi.

Er.avv. 612-yilda Nineviya shahri yangi Babil shohi Nabapalasar va Midiya shohi Kiaksarlar tomonidan vayron qilib tashlangan. Rimliklar shahar o'rnida harbiy kolonna tashkil etgan. Nineviya shahri haqidagi ma'lumotlar Kuyunjiq shahri qazilmalaridan ko'pgina ma'lumotlar topilgan. Ushbu arxiv xarobalaridan topilgan 20000 mingdan ortiq topilmalar Buyuk Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

Qadimgi Misr arxivlari. Misr arxivlari haqida ilmiy ma'lumotlarga ko'ra olimlar Misrda Ikki daryo oraliq'i mamlakatlaridan oldin ham yozuv shakllangani to'g'risidagi faktik ma'lumotlarga duch kelishgan. Ular ibodatxonalar devorlari, qabrlarda yozib qoldirilgan. Ammo bu kabi boshqa manbalar ham Misrdagi arxivlarning faoliyatini aniq yoritib berishga asos bo'la oladi. Mamlakatning asosiy arxivi fir'avn saroyidagi arxivi bo'lib, shoh nomiga bitilgan hujjatlarning asl nusxalari, fir'avnni rasmiy faoliyatiga oid va boshqa hujjatlar saqlangan. fir'avn saroyi va ibodatxonalar yilnomalarni yozish markazlari sifatida faoliyat olib borgan. fir'avnlarning saroyi arxivlariga doir ma'lumotlarni o'rganishda Tel-Amaran arxivi muhim ahamiyat kasb etadi.

Arxivdan saltanat axborotnomalari, buyruqlari, shartnomalari, podshohlar ro'yxati, diplomatik yozishmalar, mulkka doir qo'lyozmalar, mansabdor shaxslarning hisobotlari, qonun hisobotlari, sud bayonnomalari (yilqichilik to'g'risida, mifologiya va she'rlar, qo'shiqlar, duolar, diniy bayramlar) haqida. Bundan tashqari yangi xett davlatiga tegishli shumer-akkad-xet lug'atlari, loy taxtalar katalogi kabi hujjatlar bo'lib, er.avv. XIV-XIII asrlarga oid. Hujjatlaridan bittasi er.avv. XVII asrga tegishli.

1906-yil nemis olimi Y.G.Vinklex Bugozgoyada xettlar poytaxti Xattusi xarobalarida arxeologik tadqiqotlar olib bordi. Qazishmalar natijasida yaqin Sharq tillarida bitilgan o'n minglab taxtachalardan iborat arxiv, jumladan, Xett-Misir tinchlik shartnomasining mixxat varianti topildi. Chexiyalik tadqiqotchi B.Grozniy 1915-yilda chuqur tadqiqotlar natijasida xett tili hind-Yevropa tillar oilasiga mansub degan xulosani aytdi, natijada Xett davlati tarixining o'rganish kuchayib ketdi. Olim A.Getse 1933-yil Xett davlati tarixini umumiy ocherkini yaratdi. Bundan tashqari, A. Getse 1933-yilda Kichik Osiyo tarixi umumiy ocherkini chop etdi. Muallif Xett davlati harbiy va sulola tarixiga asosiy e'tiborini qaratdi.

Yana qadimgi arxiv xarobalari O'rta yer dengizining sharqiy sohillaridan topilgan. Arxiv qadimgi Ugarit hududlariga (er.avv. II ming yillikning o'rtalariga) to'g'ri keladi. Ulardan biri Vaala ibodatxonasining arxiv-kutubxonasi bo'lib, unda ma'muriy-xo'jalik, turli yozishmalar, adabiy matnlar, tibbiy bitiklar topilgan.

Ossuriya arxivlari haqida ko'pgina ma'lumotlar mavjud. Ossur hukmdorlarining 4 ta shahar qarorgohlaridan shohlik arxivlari topilgan. Ular Akgnura, Dur-Sharrukin, Nineveya va Kalxu shaharlaridir. Ossuriya poytaxti Ashshurdagi arxiv hujjatlari er.avv. XV – XIII asrlarga oid hisoblanadi. Ashshur shohlik arxividan tashqari mahalliy ibodatxonaning arxiv-kutubxonasi ham saqlanib qolgan.

Ossuriya hududidagi mashhur topilma "Ashshurbanipal kutubxonasi" hisoblanadi.

Quyunjik arxivi. Quyunjik xarobalaridan Ossuriya poytaxti Nineviya shahri qoldiqlari topilib, uni o'rganish ishlari XX asrning 30-yillarigacha davom etgan. Qazish ishlari ingliz arxeolog olimlari G.Leyard, R.Kempbel-Tompsonlar tomonidan olib borilgan.

Quyunjik tepaligining quyi qatlamlari er.avv. VI – III asrlarga oid. Eng qadimgi davrlarga oidi esa er.avv. XXIII – XVIII asrlarga tegishli. Akkad davlati